



**INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI LEKSEMALAR MA’NO
MUNDARIJASIDAGI RELEVANT VA IRRELEVANT SEMALAR
XUSUSIDA**

Muslimbek Nasirov

Qo‘qon DU, O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası o‘qituvchisi

Muxtasarxon Valijonova

Qo‘qon DU, talaba

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida relevant (dolzarb) hamda irrelevant (nozarur) semalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Relevant semalar so‘zning asosiy ma’nosini belgilab, uning mazmunini shakllantirsa, irrelevant semalar kontekstga bog‘liq holda qo‘shimcha yoki ikkinchi darajali ma’lumotlarni ifodalaydi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida semalarning lug‘aviy, kontekstual va pragmatik ko‘rinishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Ma’no, semasiologiya, denotativ ma’no, ma’no mundarijasi, ma’no ko‘lami, relevant ma’no, irrelevant ma’no, komponent tahlil.

Til insoniyatning eng qadimiy va boy ixtirosi bo‘lib, uning asosiy vazifasi fikr almashish va axborotni yetkazishdir. Biroq so‘zlarning oddiy tovushlardan iborat ekanligi ortida murakkab va chuqur ma’no yotadi. Ma’no – bu so‘z, ibora yoki matn orqali ifodalanadigan mazmun bo‘lib, u inson tafakkurining asosiy ko‘rinishlaridan biridir.

Ma’noning turlari va ularning shakllari tilshunoslik va falsafa sohalarida ko‘pdan beri o‘rganib kelinmoqda. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosi, kontekstual ma’nosi, obrazli va ko‘chma ma’nolari tilning xilma-xil imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu maqola tilning bu sirli va boy qatlamini yanada yaxshiroq anglashga qaratilgan.

O‘zbek tilida ma’no va uning turlari haqidagi ilmiy tadqiqotlar tilshunoslikning semasiologiya (semantika) bo‘limida keng yoritilgan. Ma’no va uning turlari masalasi o‘zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur



o'rganila boshlandi. Ushbu sohada bir nechta muhim yo'nalishlar va olimlarning hissasi mavjud. O'zbek tilshunosligida lug'aviy ma'no so'zning asosi, uning eng muhim semantik xususiyati sifatida tadqiq qilingan. So'z ma'nosining turlari quyidagicha tasniflanadi:

Asosiy (denotativ) ma'no – so'zning asosiy, odatda birinchi ma'nosi (masalan, "kitob" – o'qish uchun mo'ljallangan yozuv). Ko'chma (metaforik) ma'no – bir so'zning boshqa ma'noda qo'llanishi (masalan, "yurak" – insonning hissiyati markazi sifatida). Qarindosh ma'no – bir xil ildizdan hosil bo'lgan so'zlarning yaqin ma'nolari.

O'zbek tili ko'p ma'noli so'zlarga boy bo'lib, ular turli kontekstlarda turlicha ma'no beradi. Bu borada O'zbek tilining ko'p ma'nolilik holatlarini o'rgangan olimlar orasida Sh. Raxmatullayevning hissasi katta. U so'zlarning ko'p ma'noliligi va ularning tuzilishi ustida ishlagan. Ma'no turlarining yana bir muhim yo'nalishi sinonimlar (o'xshash ma'noli so'zlar), antonimlar (qarama-qarshi ma'noli so'zlar) va omonimlar (bir xil shakldagi, lekin turli ma'nodagi so'zlar)ni o'rganishdir. Bu borada A. Madrahimovning ilmiy ishlari e'tiborga loyiqdir. O'zbek tilida frazeologik birliklar ma'nosi ham alohida tadqiqot obyekti bo'lib, ularning semantik o'ziga xosligi, ko'chma va obrazli ma'nolari o'rganilgan. Jumladan, N. Mahmudov frazeologizmlar ustida ilmiy tadqiqot olib borgan. So'zning ma'nosi uning kontekstdagi o'rni va vazifasiga qarab o'zgarishi mumkin. Bu esa pragmatolingvistika va tekst lingvistikasi doirasida o'rganilmoqda. Quyida relevant hamda irrelevant semalarni ingliz va o'zbek tillari misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ingliz tilidagi [sister] leksemasining sememasi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» atash semalariga ega. O'zbek tilidagi [opa] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «mendan katta» relevant semasi ham bor. Chunki [opa] leksemasi shu semasi bilan [singil] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Sister] leksemasiga shu sema bilan qarshilantiruvchi birlik yo'q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «mendan katta/mendan kichik» semasi mavjud bo'lib, u noaniq bo'lganligi sababli irrelevantdir. Bunday so'zlarga ko'plab misol keltirish mumkin. [Cousin] leksemasining sememasi «qarindosh», «qon-qarindosh» atash semalariga ega. O'zbek tilidagi [amakivachcha] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «aka - ukalarning bolalari» relevant semasi ham bor. Chunki [amakivachcha] leksemasi



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

shu semasi bilan [xolavachcha] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Cousin] leksemasiga shu sema bilan qarshilanoqchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «aka-ukalarning bolalari/ opa -singillaring bolalari» semasi mavjud bo‘lib, u noaniq bo‘lganligi sababli irrelevant hisoblanadi. [Uncle] leksemasi ham bunga misol bo‘ladi. Bu leksemaning sememasi «qarindosh», «qon-qarindosh» atash semalariga ega. O‘zbek tilidagi [amaki] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «otaning akasi yoki ukasi» relevant semasi ham bor. Chunki [amaki] leksemasi shu semasi bilan [tog‘a] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Uncle] leksemasiga shu sema bilan qarshilanoqchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «otaning akasi yoki ukasi/onaning akasi yoki ukasi» semasi mavjud bo‘lib, u noaniq bo‘lganligi sababli irrelevantdir. Bu hodisa faqat qarindoshlikka oid bo‘lgan leksemalardagina emas, boshqa bir qator leksemalarda ham uchraydi. [Student] leksemasining sememasi «Biror o‘quv yurtida ta‘lim olayotgan shaxs» atash semasiga ega. O‘zbek tilidagi [talaba] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olayotgan shaxs» relevant semasi ham bor. Chunki [talaba] leksemasi shu semasi bilan [o‘quvchi] leksemasidan farq qiladi. [Student] leksemasiga shu sema bilan qarshilanoqchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olayotgan shaxs/umumiy o‘rta ta‘lim muassasasida ta‘lim olayotgan shaxs» semasi mavjud bo‘lib, u noaniq bo‘lganligi sababli irrelevantdir. [Game] leksemasining sememalari «ko‘ngil ochish, dam olish, tarbiyalash maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg‘ulot», «boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma‘lum qoidalar asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulot» atash semalariga ega. O‘zbek tilidagi [o‘yin] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «umumiy ma‘noda ko‘ngil ochish uchun mo‘ljallangan mashg‘ulot» relevant semasi ham bor. Chunki [o‘yin] leksemasi shu semasi bilan [musobaqa] leksemasidan farq qiladi. [Game] leksemasiga shu sema bilan qarshilanoqchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «ko‘ngilochar mashg‘ulot/ bellashuv» semasi mavjud bo‘lib, u noaniq bo‘lganligi sababli irrelevant sanaladi. [Chair] leksemasining sememasi «odatda suyanchig‘i bo‘ladigan, bir kishilik o‘rindiqlar» atash semasiga ega. O‘zbek tilidagi [kursi] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «suyanchiqsiz stul» relevant semasi ham bor. Chunki [kursi] leksemasi shu semasi bilan [stul] leksemasidan farq qiladi. [Chair] leksemasiga shu sema bilan qarshilanoqchi birlik



yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli «suyanchig‘i bor o‘rindiқ /suyanchiqsiz o‘rindiқ» semasi mavjud bo‘lib, u noaniq bo‘lganligi sababli irrelevantdir.

O‘zbek tilida ma‘no va uning turlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar milliy tilshunoslikning boyligi va salohiyatini namoyon etadi. Lug‘aviy va ko‘chma ma‘nolarni o‘rganish bo‘yicha an‘anaviy yondashuvlar mustahkam ilmiy asos yaratgan bo‘lsa-da, zamonaviy tilshunoslik talablariga javob beradigan yangi usullar va yondashuvlarga ehtiyoj bor. Ayniqsa, semantikaning pragmatik va kognitiv tomonlari, texnologiyalar yordamida ma‘no tahlili, va tilning madaniy o‘ziga xosliklarini chuqur o‘rganish uchun imkoniyatlar kengdir. Tilning bu qirralarini chuqur o‘rganish nafaqat ilm-fan rivojiga, balki O‘zbek tili xalqaro maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (6 jildlik). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
2. G‘. Abdurahmonov, M. Yo‘ldoshev, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1979.
4. R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2005.
5. M. Yo‘ldoshev. Semasiologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
6. N. Mahmudov, B. Yo‘ldoshev, A. Hojiev. O‘zbek tili: Nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.